TA'LIM BOSHQA TILDA OLIB BORILADIGAN MAKTABLARDA O'ZBEK TILIDAGI IBORALARNI O'QITISHDA NUTQIY VA TAYANCH KOMPETENTSIYALARNING SHAKLLANISHI

Djumambetova Raxima Karimbergenovna
Qoraqalpog'iston respublikasi Shumanay tumani
16-son umumiy o'rta ta'lim maktabi
O'zbek tili fani o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.21545588

Inson hayotiga kirib keladigan har qanday yangilik ogohlikni, hattoki narozilikni keltirib chiqaradi. Shu boisdan ham, uzoq yillar davomida bir qolipda ishlab kelgan xalq ta'limi xodimlari bugungi kunning o'zida-yoq takomillashtirilgan Davlat ta'lim standartlari asosida ta'lim jarayonini bugungi ta'lim talablariga mos darajada tashkil qilishda qiynaladi. Eng avvalo, ta'limda yangi bilimlar shakllantirish borasida zamonaviy axbarot kommunikatsiya va media vositalaridan foydalangan holda yangilik va o'zgarishlar, ta'lim sifatini oshirishda bolalarning bilim salohiyatini takomillashtirish uchun interaktiv g'oyalar orqali bolalarning kompenentliligini rivojlantirishni amalga oshirishi kerak. Fan-texnika taraqqiy etgan, axborot almashinuvi kuchaygan tezkor zamonda mamlakatimizning barcha sohalarida bo'lgani kabi ta'lim tizimida ham qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Fan-texnika asri va jadal taraqqiy etayotgan hayot o'quvchilarda o'quv predmetlari bo'yicha faqatgina bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishning o'zi yetarli emasligini ko'rsatmoqda. Ta'lim jarayoniga o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini bevosita kundalik hayotida qo'llashga o'rgatadigan kopmetensiyaviy yondoshuvga asoslangan DTSlarni yaratish va ta'lim jarayoniga qo'llash zaruriyati yuzaga keldi.
Kalit so'zlar: tayanch kompetensiya, ikkinchi til sifatida o'zbek tili, interfaol usullar, frazeologik birliklar, o'quvchilar savodxonligi.

Ta'lim berish jarayonida har bir pedagog qanday qilib, qanday usullar bilan dars jarayonida o'quvchilarni faollashtirish mumkin degan haqli savol tug'iladi.

Davlat ta'lim standartlari talablariga asoslangan holda mustaqil O'zbekistonning yosh avlodiga ta'lim-tarbiya berish o'qituvchilarga ma'suliyatli vazifalarni yuklaydi. Hozirgi vaqtda o'qituvchilar oldida fan asoslarini o'qitishning ilmiy-nazariy saviyasini ko'tarish, o'qitish usullarini takomillashtirish natijasida dars samaradorligini oshirish va sifatini yaxshilashdek ishlar turibdi va bu vazifalarni bajarishda yangi pedagogik izlanish natijalarini amaliyotda joriy qilish dolzarb muammolardan biridir. Xususan, O'zbek tili fanini o'qitishda ham muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish bilan dars o'tilsa, maqsadga mos bo'ladi.

"Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'zbek tili kommunikativ tamoyil asosida ikkinchi til sifatida o'qitiladi. Shuning uchun ta'lim mazmunida asosiy diqqat-e'tibor nutqiy va lingvistik kompetentsiyaga qaratilgan bo'lib, o'quvchilar o'zbek tilidan egallaydigan lingvistik bilimlari vositasida kundalik turmush, ijtimoiy-madaniy hayot, mutaxassislik sohalarida og'zaki va yozma erkin muloqat yuritishga qaratilgan fanga oid tayanch kompetentsiyalarning elementlarini shakllantirish ko'zda tutiladi".[1] Umumiy o'rta ta'limda o'zbek tili fanini o'qitishning asosiy vazifasi sifatida o'quvchilarning kundalik va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun o'zbek tili fani bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini muloqot jarayonida qo'llash malakasini rivojlantiruvchi

[1] DTS ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda O'zbek tili fanini o'qitish bo'yicha dasturi

nutqiy va og‘zaki, yozma savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalar bilan birgalikda, o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilimlari asosida o‘zini o‘zi mustaqil rivojlantirish, egallangan bilim, ko‘nikma va malakasini turli vaziyatlarda qo‘llay olishga qaratilgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirish ko’zda tutiladi.

Hozirgi kunda o’quvchilar kompetensiyasini oshirish yo’lida ko’plab ishlar olib borilmoqda. Kompenentlik deganda bevosita kasbga loyiqlik, o’z sohasi bo’yicha egallalgan bilim, ko’nikma, malakalaridan kasbi doirasida mustaqil ravishda amaliy foydalana olish va ijodiy munosabat namayon qila olish qobiliyatidir. Darhaqiqat, ko’p narsani bilsa da, lekin ularni amaliy qo’llay olmaydigan o’quvchining jamiyatga ham, o’ziga ham foydasi tegmaydi. Nemis olimi Hilbert Meyer aytganidek, “Kompenentli o’quvchi” “quruq bilim” sohibi bo’lib qolmasdan, balki o’z bilimlaridan yuzaga kelgan vaziyatlarda yetarlicha foydalana oladi, xotirasida tez tiklanadigan bilimlar mazmuniga ega bo’ladi, -degan edi.

O’zbek tili-Ta’lim rus va qardosh tillarda boriladigan o’rta ta’lim muassasalarining 11-sinfi va o’rta maxsus kasb-hunar ta’limi mussasalarining o’quvchilari ushun darsligida Odil Yaqubovning “Muzqaymoq” hikoyasi berilgan. Shu hikoyada o’quvchilarga iboralarni tahlil qilish orqali kundalik turmush tarzidagi ko’nikmalarni shakllantirish lozim. Odil Yaqubovning “Muzqaymoq” hikoyasi uchun ajratilgan darsda interfaol usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, “Trening”, “Davom ettir”,“Iborani tahlil qil” kabi usullardan foydalanish mumkin.

“Davom ettir” usulidan foydalanish uchun guruh ikkiga bo’linadi.

Guruhlarga nom beriladi. Doskaga guruhlar nomi yozib qo’yiladi. Guruhlarning har bir ishtirokchisiga bittadan iboralarga teng so’z aytiladi, masalan, “quvondi, …”, “tez,…”, “qaysar,…”, “olifta,…” kabi. Guruh a’zolarining har bir topgan iboralariga 1 balldan beriladi va doskaga yozib qo’yiladi. Dars so’ngida ballar hisoblanadi va g’olib guruh taqdirlanadi. Shu tariqa o’quvchilar o’z xotiralarini charxlab oladilar va kop’lab iboralarni bilib oladilar. Bu esa har xil vaziyatlarda nutq so’zlaganlarida nutqlarini chiroyli va ta’sirchan tarzda bayon etishlariga yordam beradi. O’quvchida erkin fikrlay olish, o’z nutqini aniq va ifodali qilib tuzishi uchun barcha tilshunoslik bo’limlarini bilishi talab qilinadi. Shuningdek, ijodiy fikrlay olishiga zamin yaratib beradi.

“Iborani tahlil qil” usulida o’quvchining ijodiy qobiliyati oshiriladi. Erkin, o’zi o’ylagan fikrni qoidalar asosida, to’g’ri so’z tartibida, mazmunan teng bo’lgan jumlalar tuzish orqali bayon qila olish imkoniyatini oshiruvchi bu usullar hozirgi zamonaviy ta’lim tizimida yaxshi natija berishi shubhasiz. “Iborani tahlil qil” usuli orqali o’quvchilar hikoyada berilgan iboralarni mustaqil tahlil qilishni o’rgatishga yordam beradi. Namuna:

...Bergan chorak soatlari ko’z ochib-yumguncha o’tib ketdi[2]*-“tez”. Ma’nosini tushintirib, iborani gap ichida keltirish. Raketa ko’z ocib-yumguncha uchib ketdi.*

Bu safar chorak soat davom etgan vidolashuv davomida dadamlar biror marta Stalinning nomini tilga olmadilar...

Hikoyadan beshta ibora topib ularning ma’nosi ustida tahlil qilish va iboralarning ma’nosi ustida suhbatlashish orqali o’quvchilarda nutqiy kompetentsiyalar ham shakllanib boradi. O’quvchilar kompetensiyasini oshirishda turli usullardan foydalaniladi. Ayniqsa trenninglardan foydalanish ham samarali hisoblanadi. Buyuk faylasuf Konfutsiy aytgan edi: “Men nimani eshitsam, unutaman, nimani ko’rsam xotiramda saqlayman, nimani o’zim qilsam tushunaman”.[3]

[2] O’zbek tili-Ta’lim rus va qardosh tillarda boriladigan o’rta ta’lim muassasalarining 11-sinfi va o’rta maxsus kasb-hunar ta’limi mussasalarining o’quvchilari ushun darsligi “Davr nashriyoti”. Toshkent-2018

[3] V.Vorontsov kompozitsiyasi ,Sh.Abdurazzoqova tarjimasi. “Tafakkur gulshani”.Toshkent.G’ofur G’ulom

Shuning uchun ta’lim jarayonida o’quvchilarga faol bo’lishni talab etadigan uslublarda dars o’tish yaxshi natija beradi. Ana shunday uslub treninglar tarzida bilim berishdir.

Mustaqillik davrida yaratilgan O’zbek tili darsliklarida milliy mafkuramizning asosiy g’oyalari: Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijti-moiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo samimiy munosabat va boshqalar, shuningdek, milliy istiqlol mafkurasining tarixiy, falsafiy va iqtisodiy asoslari hamda uning milliy va umuminsoniy tamoyillari masalalari hisobga olingan va bu olijanob g’oyalarni o’quvchilar ongiga singdirishga qaratilgan bir qancha matnlar, su’ratlar va misollar bilan ta’minlangan.

Iboralarning ma’nosi va qo’llanishida so’zlovchi uchun ta’sirchanlikni oshirish uchun ularni to’g’ri qo’llashda iboralar ustida ishlash hayotiy ko’nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. So’zlovchining tilning turli sath birliklaridan oqilona foydalanish mahorati, fikrni obrazli ifodalashda o’ziga xos usullarni qo’l-lay olish ko’nikmasiga ega bo’lishi lingvistik faollik hisoblanadi. Ibora bu tilning ta’sirchanligini oshiribgina qolmasdan, til va xalqning ijtimoiy, tarixiy shaklla-nishini ko’rsatib beradi. Dars davomida iboralarni o’rganish orqali lingvistik va fanga oid kompetentsiyalar shakllantirib boriladi.

Nutqiy kompetensiya – o’quvchining notanish matnni ifodali o’qiy olish, o’zgalar fikrini va matn mazmunini anglash hamda uni og’zaki qayta bayon qila olish, fikrni yozma ravishda izchil ifodalay olish darajasi hisoblanadi.

Lingvistik kompetensiya: kundalik hayotda faol qo’llaniladigan ijtimoiy mavzular-ga oid va kasb-hunarga yo’naltirilgan lug’at boyligini oshirib borish, o’zbek tili-ning so’z yasalishi vositalarini bilish lug’at boyligini oshirib borishdan iborat bo’lib, bularning barchasi o’zbek tilining fonetikasi, leksikasi va grammatikasi bo’yicha nazariy bilimlarni muayyan izchillikda egallash vositasida amalga oshiriladi.

Maqol, matal, iboralar, aforizm va boshqa barqaror birikmalarni bilish-ularni nutqda tog’ri vaziyatlarda qo’llay olish imkonini beradi. Bilamizki nutqda barqaror birikmalarning ishlatilishi, nutqni yanada chiroyli qilish bilan bir qatorda uning ahamiyatini ham oshiradi. O’qituvchi darslikda berilgan maqollarni, iboralarni ma’nosini o’quvchilarga to’g’ri tahlil qilib berishi lozim,aks holda nutqda noto’g’ri qo’llab katta xatoga yo’l qo’yishlari mumkin.

Iboralarning ma’nosini tushinish xorijiy tilda o’zaro muloqatga kirishda so’zlarni to’gridan-to’g’ri tarjima qilmasdan ularni mazmunan bog’lashga yordam beradi va o’quvchidagi kommunikativ kompetentsiyaning shakklanishini ta’minlaydi.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasining shakllanishi—iboralarni tushinish va qo’llay olish nutq jarayonida so’zlarni to’g’ri foydalanishga yordam beradi. O’ziga degan ishonch bildirayotgan fikrida qatiyatlilkni oshiradi. So’zlovchining til boyligi ortgan sari hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib boradi.

Ijtimoiy faol fuqarolik ko’nikmalarini hosil qilishda— jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, shiddat bilan rivojlanayotgan shunday paytda o’zligimizni, milliyligimizni ham yo’qotmasligimiz kerak. Yoshlarimizni milliy qadryatlar ruhida tarbiyalab borishda, adabiy til normalariga amal qilishni ongiga singdirib borishda har o’tayotgan mavzuyimizda aks etishi lozim.

Dars davomida o’quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyaning shakllanishida iboralarni o’rganish orqali — vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish, badiiy va san’at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog‘lom tur-mush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Milliy va umummadaniy kompetentsiyani shakllantirishda iboralarni o’rganish o’zligimizni anglashda ozgina bo’lsa ham o’z ta’sirini ko’rsatadi. Demak, ta’limning barcha turlarida, xususan, til ta’limida kompetensiyaviylikni

nomidagi Adabiyot va san`at nashriyot.1989-y.

rivojlantirishga e’tibor qara-tish barkamol avlodni tarbiyalashning tayanch nuqtasi bo’lib xizmat qiladi.

Fikrlash bu o’qish, yozish, so’zlash yoki tinglashga o’xshash jarayon bo’lib, u borliq to’g’risida fikr yuritishni o’z ichiga oladigan faol, uyg’unlashgan kompleks jarayondir. Fikrlash o’qitish dasturining umumiy tub ma’nosi yoki kundalik hayot tajribasi, borliq olam vazifalari ijodiy tus oladi, erkin fikrlash va tanqidiy bo’ladi. Tanqidiy fikrlashga kimlar qodir? Tanqidiy fikrlash uchun, bildirilayotgan fikrni isbot qila olish, ilmiy baholash uchun aniq va to’liq bilimga ega bo’lish, taqqoslay olish kabi bilim va ko’nikmalarga ega bo’lgan kompenentli, biz tarbiyalayotgan millat davomchilari qodir. Zero, ular Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Yoshlar kelejak bunyodkoridir”. Shunday ekan, har bir ularning tarbiyasiga befarq bo’lmasligimiz lozim.